

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MO‘MINOV FAZLIDDIN XUSNIDDIN O‘G‘LI

**HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI
BOSHQARISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI (OLMAZOR TUMANI
MISOLIDA)**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

Mo‘minov Fazliddin Xusniddin o‘g‘li

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda
innovatsiyalarning roli (Olmazor tumani misolida)..... 3

Муминов Фазлиддин Хусниддин угли

Роль инноваций в управлении социально-экономическим развитием
региона (на примере Олмазорского района)..... 27

Mominov Fazliddin Xusniddin ugli

The role of innovations in managing the socio-economic development of the
region (a case study of Olmazor district) 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MO‘MINOV FAZLIDDIN XUSNIDDIN O‘G‘LI

**HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI
BOSHQARISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI (OLMAZOR TUMANI
MISOLIDA)**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Iqt5219 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) hamda "Ziynet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Zufarova Nozima Gulamiddinovna,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: Kasimova Diloram Sabirovna,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamurov Samad Egamnazarovich,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot: Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "12" ¹²soat ¹²12.12.2025-dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "6" ¹²12 kuni tarqatildi.
(2025-yil "5" ¹²12-dagi 67-raqamli reyestr bayonnomasi).



G.K. Abduraxmanova,
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djuraboyev,
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kотиbi, i.f.d., professor

Sh.A. Allayarov,
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hududiy rivojlanish jarayonlarini samarali boshqarish va zamonaviy texnologiyalar asosida transformatsiya qilish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 6,0 foizga o‘sd, hududlarning iqtisodiy salohiyatini to‘liq ishga solish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va investitsiya muhitini yaxshilash bu jarayonning asosiy omillaridan biri bo‘lmoqda¹. Ayniqsa, Olmazor tumani kabi shahar tumanlarida raqamli iqtisodiyot va innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish orqali mahalliy darajada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda hududiy boshqaruv sohasida innovatsion texnologiyalar, raqamli infratuzilma, “aqlli shahar” konsepsiyasi va yashil iqtisodiyot elementlarini joriy etish orqali iqtisodiy barqarorlik hamda ijtimoiy farovonlikka erishilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2023-yilda umumiy investitsiyalar hajmi 3,1 trillion yevroga yetgan bo‘lib, shundan katta qismi hududlararo raqamli infratuzilmani rivojlantirish va yashil texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan². AQShda esa 2022–2023-yillarda “Smart Cities” loyihalari doirasida 165 dan ortiq shahar innovatsion infratuzilma va boshqaruv tizimlarini joriy etdi³.

Shu bilan birga, jahon miqyosida hududiy rivojlanishni samarali boshqarish va innovatsion komponentlarni joriy etish masalasi global dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, 2050-yilgacha global aholi soni 9,7 milliard kishiga yetishi kutilmoqda, bu esa hududiy boshqaruv, resurslardan samarali foydalanish va raqamli yechimlarga ehtiyojni keskin oshiradi⁴. Jahon bankining 2023-yilgi hisobotida ta‘kidlanishicha, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etgan mamlakatlar iqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha 20 foiz yuqori natijalarga erishgan⁵.

Tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot va hududlarni kompleks boshqarishni takomillashtirishga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar hamda davlat strategiyalariga asoslanadi. Jumladan, mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-iyuldagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ–576-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6079-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son farmonlari, 2022-yil 7-noyabrdagi “Fan va innovatsiyalarni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4364-son, 2022-yil 29-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/makroiqtisodiyot>

² European Commission Regional Policy Report, 2023: https://ec.europa.eu/regional_policy/en/newsroom/news/2023

³ U.S. Smart Cities Initiatives, 2023 Report: <https://www.smartcitiesworld.net/news/news/smart-cities-progress-in-the-us-8654>

⁴ United Nations, World Population Prospects, 2022: <https://www.un.org/en/global-issues/population>

⁵ World Bank, Global Economic Prospects, 2023: <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>

dekabrdagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4659-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-martdagi “Aqlli shahar”lar (“Smart City”) konsepsiyasini joriy etish to‘g‘risida”gi 249-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hududiy boshqaruvga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli transformatsiya global ilmiy izlanishlarda alohida e‘tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Jumladan, hududiy boshqaruvning texnologik modernizatsiyasi, “aqlli shahar” konsepsiyasi, Big Data va IoT texnologiyalarining roli Saskia Sassen, Peter F. Drucker, Manuel Castells, Michael E. Porter, Mark R. Kramer, Anthony M. Townsend, Erik Brynjolfsson, Andrew McAfee, Klaus Schwab, Joseph A. Schumpeter kabi xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan⁶.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari hududiy boshqaruv sohasida innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlar integratsiyasi Milner B.Z., Kozyrev A.N., Lapidus L.V., Tatur Yu.G., Glazyev S.Yu., Kuleshov S.V., Ivanov S.V. kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan⁷.

O‘zbekistonda hududiy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish masalasi Aliyeva M.T., Babajanov A.R., Elmurodov T.S., Kasimova Z., Makhmudov S., Otajanov U. kabi olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan⁸.

⁶ Sassen, Saskia. Territory, Authority, Rights: From Medieval to Global Assemblages. Princeton, New Jersey: Princeton University Press, 2003; Drucker, Peter F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. New York: HarperBusiness, 2007. (Ilk nashr 1973-yilda, so‘nggi yangilangan nashri 2007; Castells, Manuel. The Rise of the Network Society (Second Edition). Oxford, UK: Wiley-Blackwell, 2010; Porter, Michael E., & Kramer, Mark R. Creating Shared Value: How to Reinvent Capitalism and Unleash a Wave of Innovation and Growth. Boston, MA: Harvard Business Review, 2011. (Maqola, HBR jurnali asosida) Havola: <https://hbr.org/2011/01/the-big-idea-creating-shared-value>; Townsend, Anthony M. Smart Cities: Big Data, Civic Hackers, and the Quest for a New Utopia. New York: W. W. Norton & Company, 2013.; Brynjolfsson, Erik, & McAfee, Andrew. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W. W. Norton & Company, 2014.; Schwab, Klaus. The Fourth Industrial Revolution. Geneva, Switzerland: World Economic Forum, 2016.; Schumpeter, Joseph A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. (Reprintlar keyinchalik nashr etilgan, asl nashr 1934) Havola: <https://www.hup.harvard.edu/books/9780674879904>

⁷ Мильнер, Б.З., Управление развитием регионов: инновационный подход. – Москва: Инфра-М, 2018. – 352 с.; Козырев, А.Н., & Лapidus, Л.В. Цифровая трансформация регионального управления. – Москва: Издательство Высшая школа экономики, 2020. – 280 с.; Татур, Ю.Г. Стратегическое управление развитием территорий. – Москва: КНОРУС, 2019. – 312 с.; Глазьев, С.Ю. Цифровая экономика: вызовы и перспективы для России. – Москва: Экономика, 2017. – 256 с.; Кулешов, С.В., & Иванов, С.В. Городская инфраструктура и Smart City: концепции и технологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2021. – 368 с.

⁸ Aliyeva, M.T. Hududiy boshqaruv tizimlarining innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2023; Babajanov A.R. Hududlarni rivojlantirish (o‘quv qo‘llanma). – T., TIQXMMI, 2020. – 393-b.; Elmurodov T.S. O‘zbekiston sanoat klasterlarida moliyaviy mexanizmlar va innovatsiyalar: raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari, 2025; Kasimova, Z. Turizm hududlarini boshqarishda innovatsion texnologiyalar roli. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2024; Said-Amirkhan Makhmudov. General description of the Smart City governance system (Smart Education) on the experience of Uzbekistan (smart-boshqaruv va ta‘lim komponenti), 2020;

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining AL-8023082021 – “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti indikatorlari asosida “Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi”dagi o‘rnini baholashning O‘zbekiston uchun “milliy model”ni ishlab chiqish ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi hududiy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalar, marketing strategiyalari va zamonaviy raqamli yechimlardan foydalanish orqali Olmazor tumani misolida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish hamda hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududiy boshqaruvda innovatsion texnologiyalarning nazariy asoslarini o‘rganish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash;

hududiy rivojlanish strategiyalarida innovatsion komponentlarni integratsiya qilish usullarini tahlil qilish;

investitsiya jalb etishda marketing strategiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va boshqaruv tizimini tahlil qilish;

tumanda qo‘llanayotgan innovatsion boshqaruv texnologiyalari samaradorligini baholash;

Olmazor tumanida innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

tumanda “aqlli shahar” konsepsiyasini joriy etish va raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish;

hududiy boshqaruvda innovatsion yondashuvlar asosida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llarini asoslab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Olmazor tumani misolida hududiy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalar va marketing strategiyalaridan foydalanish orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish boshqaruv jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini hududiy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalar va marketing strategiyalarini qo‘llash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish jarayonida shakllanadigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, taqqoslash, marketing tahlili, iqtisodiy-statistik tahlil, modellashtirish va prognozlash usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish va innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy asoslarini aniqlashga erishildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududlarni boshqarish modeli infratuzilmaviy rivojlanish “Internet ashyolar” (IoT), geoaxborot tizimlari (GIS) va katta ma’lumotlar tahlili (Big Data) kabi intellektual raqamli ekotizim elementlarini integratsiyalash asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmini shakllantirish taklifi asoslangan.

hududlarni innovasion rivojlantirish yondashuvi “Smart City” raqamli boshqaruv tizimi va Fuzzy AHP usulining ustuvorlikni baholash algoritmlarini integratsiyalash asosida boshqaruv qarorlarini optimallashtirish mexanizmi taklifi asoslangan.

Olmazor tumanida hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan prognoz pessimistik, inersion va optimistik prognoz ssenariylari asoslangan.

infratuzilmaviy va demografik omillarni qamrab olgan ko‘p omilli modelga ko‘ra hududlar boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida 2030-yilgacha mo‘ljallangan prognoz ssenariysi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hududiy boshqaruvda innovatsion texnologiyalar konsepsiyasi ishlab chiqildi. Sun’iy intellekt, IoT, GIS va Big Data yechimlarini integratsiya qilish orqali Olmazor tumani darajasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning kompleks modeli taklif qilingan;

Fuzzy AHP va TF-IDF metodlariga asoslangan ustuvorlashtirish mexanizmi ishlab chiqildi. U orqali tuman iqtisodiyotining asosiy rivojlanish yo‘nalishlari - turizm, xizmat ko‘rsatish va IT sohasi - empirik ravishda aniqlab berildi va investitsion muhitni yaxshilashga amaliy asos yaratilgan;

IoT, GIS va prediktiv analitika texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlandi. Ushbu tavsiyalar asosida turizm va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi loyihalar shakllantirildi hamda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish imkoniyati yuzaga kelgan;

prognozlash modeli ishlab chiqilib, Olmazor tumanining 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari prognoz qilingan;

Smart City komponentlari tajriba tariqasida joriy etildi. 15 ta mahalla kesimida raqamli boshqaruv elementlari sinovdan o‘tkazilib, resurslardan foydalanish samaradorligi 12 % ga, aholi murojaatlariga javob berish tezligi esa 1,5 baravar oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llangan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va xalqaro moliya institutlarining rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi hamda xulosa, taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o‘tkazilib, joriy etilganligi, olingan ilmiy natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan ma’qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotda hududiy boshqaruv tizimini rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuv ishlab chiqildi. Xususan, Fuzzy AHP va TF-IDF metodlari kombinatsiyasi asosida hududiy boshqaruv omillarining ta’sirchanlik darajasi baholandi va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash

mexanizmi takomillashtirildi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, IoT, GIS va Big Data texnologiyalarining hududiy boshqaruvdagi transformatsion roli nazariy jihatdan asoslab berildi, bu ilmiy adabiyotlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalari hududiy boshqaruv amaliyotida qo'llandi. Jumladan, Olmazor tumanida "Smart City" komponentlari sinov tariqasida joriy etilib, resurslardan foydalanish samaradorligi 12 foiz, aholi murojaatlariga javob berish tezligi esa 1,5 baravar oshirildi. Shuningdek, 2025–2030-yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari ishlab chiqilib, hududiy rejalashtirish amaliyotida qo'llandi. Natijada turizm, xizmat ko'rsatish va IT sohalar ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi va investitsiyalarni jalb qilish jarayoni takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda innovatsiyalarning roli bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

hududlarni boshqarish modeli infratuzilma rivojlanishi, "Internet narsalari" (IoT), geoaxborot tizimlari (GIS) va katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) kabi intellektual raqamli ekotizim elementlarini integratsiyalash asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmini shakllantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-noyabrdagi 01/16-5515-son ma'lumotnomasi, Toshkent shahar Olmazor tumani hokimligining 2025-yil 27-avgustdagi 353/01-son ma'lumotnomasi). Natijada Olmazor tumanida 15 ta mahalla kesimida "Smart City" komponentlari sinovdan o'tkazilib, resurslardan foydalanish samaradorligi 12 %ga oshirilgan, aholi murojaatlarini ko'rib chiqish tezligi 1,5 baravar yaxshilangan;

hududlarni innovatsion rivojlantirish yondashuvi "Smart City" raqamli boshqaruv tizimi va Fuzzy AHP usulining ustuvorlikni baholash algoritmlarini integratsiyalash asosida boshqaruv qarorlarini optimallashtirish mexanizmi taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-noyabrdagi 01/16-5515-son ma'lumotnomasi, Toshkent shahar Olmazor tumani hokimligining 2025-yil 27-avgustdagi 353/01-son ma'lumotnomasi). Natijada Olmazor tumanida turizm, xizmat ko'rsatish va IT sohasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilanib, investitsiyalarni jalb qilish jarayoni takomillashtirilgan; kichik biznes va startap loyihalar soni 8–10 %ga oshgan;

Olmazor tumanida hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz pessimistik, inersiya va optimistik prognoz ssenariylari taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-noyabrdagi 01/16-5515-son ma'lumotnomasi, Toshkent shahar Olmazor tumani hokimligining 2025-yil 27-avgustdagi 353/01-son ma'lumotnomasi). Natijada Olmazor tumanida 2024-yilda turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida 18 ta yangi loyihaga start berildi. Natijada 210 ta yangi ish o'rni yaratilgan va hududning yalpi hududiy mahsuloti hajmi 6,5 %ga o'sgan;

infratuzilma va demografik omillarni qamrab olgan ko‘p omilli modelga ko‘ra, hududlar boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida 2030-yilgacha mo‘ljallangan prognoz ssenariysi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-noyabrdagi 01/16-5515-son ma’lumotnomasi, Toshkent shahar Olmazor tumani hokimligining 2025-yil 27-avgustdagi 353/01-son ma’lumotnomasi). 2025-yil uchun Olmazor tumani rivojlanish ko‘rsatkichlari prognoz qilinib, natijada aholining bandlik darajasi 5 %, xizmatlar sohasi ulushi esa 7 %ga oshishi kutilmoqda.

Tadqiqot natijalari aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta, jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza shaklida bayon etilgan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 6 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnalda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 143 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan; ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobda **“Hududiy rivojlanishni boshqarishda innovatsion yondashuvlarning nazariy va uslubiy asoslari”** o‘rganilgan. Jumladan, hududiy rivojlanishni boshqarishda innovatsion yondashuvlarning nazariy-metodologik asoslari keng qamrovda yoritilgan. Avvalo, hududiy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning mohiyati va ahamiyati o‘rganilib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri tahlil qilingan. Innovatsion texnologiyalar deganda, faqat texnik yangiliklar emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini tezkorlashtiradigan, shaffof va samarali yechimlar tushuniladi. Xususan, sun’iy intellekt (AI) yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash va prognozlash jarayonlari takomillashtiriladi; IoT (Internet of Things) infratuzilmalarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi; GIS (Geografik axborot tizimlari) hududiy rejalashtirishda fazoviy tahlillarni kuchaytiradi; Big Data esa katta hajmdagi ma’lumotlar asosida strategik qarorlarni samarali qabul qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar hududiy rivojlanishda bir necha asosiy afzalliklar taqdim etadi. Ular orqali resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi,

hududlararo tafovutlar kamayadi, qaror qabul qilish jarayonida shaffoflik kuchayadi hamda aholi ehtiyojlariga tezkor javob berish imkoniyatlari kengayadi.

1-jadval

Hududiy boshqaruv va innovatsion texnologiyalar bo'yicha yetakchi olimlar ishlari va nazariy yondashuvlari⁹

Olim (Muallif)	Asarning nomi	Asosiy g'oya	Yili
Sassen Saskia	Territory, Authority, Rights: From Medieval to Global Assemblages ¹⁰	Hududiy boshqaruv globallashtirish sharoitida kuchli texnologik asoslarga tayangan holda qayta shakllanmoqda.	2003
Piter Druker	Management: Tasks, Responsibilities, Practices ¹¹	Innovatsion yondashuv boshqaruv samaradorligini oshiradi.	2007
Manuel Castells	The Rise of the Network Society ¹²	Hududiy boshqaruvda AKT tarmoqlashtirilgan boshqaruv yaratadi.	2010
M. Porter va K. Kramer	Creating Shared Value ¹³	Texnologiyalar orqali iqtisodiy va ijtimoiy qiymat uyg'un rivojlanadi.	2011
Anthony Townsend	Smart Cities: Big Data, Civic Hackers, and the Quest for a New Utopia ¹⁴	Aqlli shaharlar konsepsiyasi – IoT va Big Data orqali urban boshqaruv samaradorligi oshiriladi.	2013
E. Brynjolfsson & A. McAfee	The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies ¹⁵	Texnologiyalar ish o'rinlari, iqtisodiyot va boshqaruv tizimlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratadi.	2014
U. Mitchell va D. Power	Digital Governance for Regional Development ¹⁶	Sun'iy intellekt va IoT yordamida resurslarni boshqarish takomillashtiriladi.	2015
Klaus Schwab	The Fourth Industrial Revolution ¹⁷	4-Revolyutsiya texnologiyalari hududiy boshqaruvni to'liq transformatsiya qiladi, raqamli boshqaruv va AI asosiy rol o'ynaydi.	2016
Aliyeva M.T.	Hududiy boshqaruv tizimlarining innovatsion rivojlanish yo'nalishlari ¹⁸	Hududiy boshqaruvda raqamli texnologiyalar resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.	2023
Z. Kasimova	Turizm hududlarini boshqarishda innovatsion texnologiyalarning roli ¹⁹	Turizm sohasida GIS, IoT va raqamli yechimlar samaradorlikni oshiradi.	2024

⁹ Muallif ishlanmasi

¹⁰ <https://press.princeton.edu/books/paperback/9780691127072/territory-authority-rights>

¹¹ <https://www.amazon.com/Management-Tasks-Responsibilities-Practices-Peter/dp/0060878975>

¹² <https://www.wiley.com/en-us/The+Rise+of+the+Network+Society-p-9781405196864>

¹³ <https://hbr.org/2011/01/the-big-idea-creating-shared-value>

¹⁴ <https://www.amazon.com/Smart-Cities-Hackers-Quest-Utopia/dp/0393349783>

¹⁵ <https://www.norton.com/books/The-Second-Machine-Age/>

¹⁶ <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0740624X15000222>

¹⁷ <https://www.weforum.org/about/the-fourth-industrial-revolution-by-klaus-schwab>

¹⁸ <https://iqtisodiyotvainnovatsiyalar.uz/journal/2023/04/02>

¹⁹ <https://elibrary.uz/uz/article/34567>

Amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ilg'or texnologiyalar joriy qilingan hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori, tadbirkorlik muhiti qulay, aholi turmush darajasi esa barqaror bo'lmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida "Smart City" konsepsiyasining keng joriy etilishi natijasida infratuzilmadan foydalanish samaradorligi 15–20 foizga oshgani kuzatilgan. AQShda esa 165 dan ortiq shahar raqamli boshqaruv elementlarini amaliyotga tatbiq etib, davlat xizmatlari ko'rsatish tezligini keskin oshirishga erishgan.

1-jadvalda bu yo'nalish nazariy jihatdan ham ilmiy asoslangan. Piter Druker o'z boshqaruv nazariyasida innovatsiyani nafaqat texnologik yangilik, balki samaradorlik va natijadorlikni oshirish vositasi sifatida ta'kidlagan. Manuel Castellsning "Tarmoqli jamiyat" konsepsiyasida esa axborot oqimlari va raqamli texnologiyalar hududiy boshqaruvning strategik omili sifatida ko'rsatilgan. Porter va Kramer tomonidan ishlab chiqilgan "Ijtimoiy qiymat yaratish" modeli texnologiyalar yordamida iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirish mumkinligini asoslab beradi. Shuningdek, Klaus Schwab tomonidan ilgari surilgan "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasi bugungi kunda sun'iy intellekt, IoT va Big Data hududiy boshqaruv tizimini tubdan transformatsiya qilayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston olimlaridan Aliyeva M.T. va Kasimova Z.G' tadqiqotlarida ham innovatsion boshqaruv texnologiyalarining resurslardan samarali foydalanish va hududlar raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni alohida ta'kidlangan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida hududiy rivojlanish strategiyalariga innovatsion komponentlarni integratsiya qilish masalasi yoritilgan. Bugungi globallashuv va tezkor texnologik taraqqiyot sharoitida hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Shumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasiga ko'ra, yangiliklar iqtisodiyot va boshqaruv tizimlarining harakatlantiruvchi kuchidir. Raqamli transformatsiya nazariyasi esa texnologiyalar boshqaruvni tubdan o'zgartirishini ko'rsatadi. "Smart City" konsepsiyasi orqali IoT va Big Data hududiy resurslarni samarali boshqarishga xizmat qilmoqda (2-jadval). Castellsning tarmoqli jamiyat nazariyasi esa axborot oqimlarining hududiy boshqaruvdagi ustuvor rolini asoslab beradi. Shu bois zamonaviy hududiy rivojlanish strategiyalarida innovatsion komponentlarni qo'shish barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni ta'minlashning asosiy sharti sifatida qoraladi.

Ushbu bobda, shuningdek, hududlarga investitsiyalarni jalb etishda marketing strategiyalaridan foydalanishning ahamiyati ham ko'rib chiqilgan. Jahon tajribasida hududiy marketing va brending investorlarni jalb etishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Yevropa Ittifoqida hududiy marketing asosida investitsiyalar hajmi 3,1 trillion yevroga yetgani, AQShda esa innovatsion infratuzilmaga yo'naltirilgan marketing strategiyalari natijasida yuz minglab yangi ish o'rinlari

yaratilgani qayd etilgan. O‘zbekiston tajribasida ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida hududiy boshqaruv tizimlarida raqamli marketing elementlari keng joriy etilib, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalarining investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Marketing strategiyalari orqali hududlarning investitsion imiji shakllanadi, investorlar uchun qulay muhit yaratiladi hamda iqtisodiy faollik rag‘batlantiriladi.

2-jadval


Hududiy boshqaruvda innovatsion texnologiyalar bilan bog‘liq asosiy nazariyalar²⁰

Nazariya nomi	Asosiy g‘oya	Qo‘llanishi	Manba
Innovatsion rivojlanish nazariyasi (J. Shumpeter)	Shumpeter innovatsion rivojlanish modelini iqtisodiyot va boshqaruvdagi innovatsiyalarni harakatlantiruvchi kuch sifatida ko‘radi. Uning fikricha, yangi texnologiyalar va yangiliklar hududiy tizimlarni modernizatsiya qilish hamda iqtisodiy o‘rishni jadallashtiradi.	Hududlarda AKT, sun‘iy intellekt va raqamli infratuzilmani joriy etish orqali iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik ta‘minlanadi.	Schumpeter, J. (1934). The Theory of Economic Development
Raqamli transformatsiya nazariyasi	Texnologiyalar boshqaruv va biznes tizimlarini o‘zgartiradi.	Hududiy boshqaruvda AKT, raqamli platformalar va AI qo‘llash	Westerman et al. (2014). Leading Digital
“Smart City” (“Aqlli shahar”) konsepsiyasi	Texnologiyalar orqali shahar va hududlarni samarali boshqarish	IoT, Big Data va GIS orqali resurslarni boshqarish	Townsend, A. (2013). Smart Cities
Tarmoqli jamiyat nazariyasi (Manuel Castells)	Texnologik tarmoqlar orqali boshqaruv va axborot oqimi	Hududiy boshqaruvni tarmoqlashtirish va tezkor axborot almashinuvi	Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society
Barqaror rivojlanish nazariyasi	Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar uyg‘unligini ta‘minlash	Hududiy boshqaruvda ekologik monitoring va resurslarni muhofaza qilish	UN, (1987). Our Common Future

Hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda innovatsion komponentlarni to‘g‘ri tanlash va ularni tizimli tarzda integratsiya qilish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy boshqaruv jarayonlari shuni ko‘rsatmoqdaki, faqatgina iqtisodiy omillarga tayangan holda, hududiy rivojlanishni ta‘minlash yetarli emas. Aksincha, innovatsion ekotizimlar, ijtimoiy-madaniy integratsiya, bazaviy infratuzilma hamda samarali siyosat va boshqaruv tizimlari bir butun konseptual asos sifatida qaralishi zarur. Ushbu konseptual asosning mazmuni shundan iboratki, innovatsion yondashuvlar hududiy boshqaruvning barcha yo‘nalishlariga chuqur singdirilishi kerak. Bu, bir tomondan, iqtisodiy samaradorlikni oshirsa, ikkinchi

²⁰ Muallif ishlanmasi

tomondan, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, IoT, GIS va "Smart City" kabi ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali hududlarning raqobatbardoshligi kuchayadi. Quyidagi 1-rasmda hududiy rivojlanish strategiyalariga innovatsion komponentlarni integratsiya qilishning konseptual asosiy yo'nalishlari tasvirlangan.



1-rasm. Hududiy rivojlanish strategiyalariga innovatsion komponentlarni integratsiya qilish usullarining konseptual asosi²¹

Mazkur 1-rasmda hududiy rivojlanish strategiyalarida innovatsion yondashuvlarning o'rni va ularning o'zaro bog'liqligi keltirilgan. Konseptual asos markazida hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish g'oyasi joylashgan bo'lib, undan to'rt asosiy yo'nalish ajralib chiqadi.

Birinchidan, innovatsion ekotizimlar – hududda yangi texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini belgilab beradi. Bu yo'nalish hududning innovatsion salohiyatini oshiradi va barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy integratsiya – innovatsiyalarni joriy qilish jarayonida jamiyatning ularga moslashuvi, xulq-atvor o'zgarishi va aholining yangi texnologiyalarni qabul qilishi jarayonlarini ifodalaydi. Shu orqali mahalliy madaniyat va innovatsion yondashuvlar o'zaro uyg'unlashib, ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi.

²¹ Muallif ishlanmasi

Xorijiy amaliy tajribalar: maqsad, yechimlar, ta'sir va moslashtirish saboqlari²²

Mamlakat/Shahar	Dastur / platforma	Maqsad	Asosiy yechimlar	Ta'sir (natijalar)	Saboq / moslashtirish
Estoniya	e-Estoniya (e-ID, X-Road)	Davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish	e-ID; X-Road – ma'lumot almashish qatlami; “once-only” prinsipi	Xizmatlar tezlashdi, shaffoflik oshdi, xarajatlar qisqardi	Ma'lumot almashinuvi qatlami va yagona ID – keyingi AI/IoT loyihalari uchun poydevor
Singapur	Smart Nation / Virtual Singapore	Integratsiyalashgan shahar boshqaruvi va rejalashtirish	Raqamli egizak (digital twin) ; sensor tarmoq; transport/kommunal integratsiya	Ssenariy rejalashtirish aniqlandi; tezkor tayyorgarlik	Raqamli egizak – kompleks qarorlar uchun ko'rinadigan, hisobli muhit
Janubiy Koreya (Seul)	TOPIS	Trafikni real vaqt boshqarish	Dispatcherlik markazi; real vaqt data fusion ; 120 Dasan Call	Tirbandlik va kutish vaqti qisqardi; qoniqish oshdi	Real vaqt markazi + birlashtirilgan ma'lumot – tezkor, dalilga asoslangan qarorlar
Ispaniya (Barselona)	Sentilo; Superbloklar	Ekologiya va jamoat maydonlarini yaxshilash	Ochiq sensor platformasi (Sentilo) ; piyoda/velo “superbloklar”	Havo sifati va yashil maydon yaxshilandi; ishtirok oshdi	Ochiq standartlar/kod – vendor-lock-in kamayadi, startaplar rag'batlantiriladi
Finlyandiya (Xelsinki)	MyData; Ochiq ma'lumot	Ma'lumot etikasi va fuqaroga nazorat berish	MyData rozilik modeli; ochiq data portali; APIlar	Ishonch va shaffoflik oshdi; xususiy innovatsiyalar faollashdi	Privacy-by-design va rozilik boshqaruvi – ijtimoiy qabul kaliti
Niderlandiya (Amsterdam)	Aylana iqtisod & Smart City	Resurs samaradorligi va barqarorlik	ESG/aylana iqtisod KPI paneli ; smart kanallar; City Data	Resurs tejallishi; suv xavfsizligi; yangi xizmatlar	ESG & circular KPI ni boshqaruv paneliga bog'lash – “o'lchab” boshqarish
BAA (Dubay)	Qog'ozsiz hukumat	“Yagona oyna” orqali to'liq raqamli xizmatlar	Yagona mobil ilovalar; paperless reglamentlar; AI yordamchilar	Xizmat vaqti qisqardi; foydalanuvchi tajribasi yaxshilandi	One-stop va paperless – fuqarolik tajribasini soddalashtirish asosi
Xitoy (Xanchjou)	City Brain	AI bilan shahar oqimlarini optimallashtirish	Kamera/sensorlardan AI boshqaruv ; prediktiv tahlil	Trafik samaradorligi va tezkor xizmat kirishi yaxshilandi	AI-optimizatsiya – mavjud infrani qayta qurmasdan samara
Daniya (Kopengagen)	Yashil & “aqlli” issiqlik	Uglerod izini kamaytirish, energiya tejamkorligi	Aqlli issiqlik tarmoqlari; smart hisoblagichlar; veloinfra	Energiya tejallishi; havo sifati va sog'liq yaxshilandi	Yashil texnologiya + boshqaruv integratsiyasi – barqarorlik poydevori
Kanada (Toronto)	311 & maxfiylik saboqlari	Xizmat sifati va fuqarolik ishtirokini oshirish	311 tizimi; ochiq konsultatsiyalar; qat'iy privacy me'yorlari	Shaffoflik va ishtirok oshdi; ishonch kuchaydi	Maxfiylik me'yorlarini boshidan kiritish – “aqlli” tashabbus muvaffaqiyati

Uchinchidan, bazaviy infratuzilma hududiy rivojlanishning moddiy-texnik poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli transformatsiya, yashil texnologiyalarni keng qo'llash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va zamonaviy infratuzilma yaratish orqali hududiy boshqaruvning sifat darajasi keskin oshadi.

To'rtinchidan, siyosat va boshqaruv – innovatsion strategiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy asos, davlat siyosati va manfaatdor tomonlarni boshqarish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Ushbu yo'nalish hududiy rivojlanishning

²² Muallif ishlanmasi

tashkiliy-huquqiy kafolati sifatida maydonga chiqadi. Umuman olganda, rasmda tasvirlangan konseptual asos shuni anglatadiki, hududiy rivojlanish faqat bitta yoʻnalish bilan cheklanib qolmaydi. Innovatsion ekotizimlar, ijtimoiy-madaniy integratsiya, zamonaviy infratuzilma va samarali boshqaruv uygʻunlashganda, hududlar raqobatbardosh boʻladi, iqtisodiy samaradorlik ortadi, aholi turmush sifati yaxshilanadi va barqaror rivojlanish taʼminlanadi.

Soʻnggi yillarda hududiy rivojlanishni boshqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish – alohida texnik qaror emas, balki boshqaruv, meʼyoriy-huquqiy asos, infratuzilma va ijtimoiy qabulni birlashtirgan tizimli integratsiya vazifasiga aylandi. Shu bois ushbu boʻlimda turli mamlakat va shaharlarda sinovdan oʻtgan innovatsion yondashuvlar jadval koʻrinishida umumlashtirilib, ularning maqsadi, qoʻllangan yechimlari, erishilgan natijalari va mahalliy sharoitga mos saboqlari qisqa va loʻnda taqdim etiladi. Maqsad xorijiy amaliyotni nazariy konsept (3-jadval) bilan bogʻlab, mahalliy boshqaruv amaliyotiga tatbiq etish uchun dalillarga asoslangan yoʻl-yoʻriq shakllantirishdir.

Mazkur jadval taqqoslash tahlili va empirik kuzatuvlarga tayangan holda tuzilgan boʻlib, namunalarda quyidagi asosiy yoʻnalishlar kesimida mantiqiy uygʻunlik koʻrsatiladi: maʼlumotlar almashinuvi qatlamini barpo etish (arxitektura-avval yondashuvi), raqamli egizak orqali ssenariyli rejalashtirish, real vaqt rejimidagi dispetcherlik va optimallashtirish, ochiq standartlar va ochiq maʼlumot siyosati, maxfiylikni loyihadan boshlab taʼminlash, “yagona oyna” hamda qogʻozsiz jarayonlar, shuningdek, atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv koʻrsatkichlari bilan bogʻlangan natijani oʻlchash mexanizmlari. Tanlangan tajribalar hudud boshqaruvining turli modeli va rivojlanish bosqichlarini qamrab olib, pilot → oʻlchash → kengaytirish ketma-ketligi samaradorligini koʻrsatadi.

Jadvaldan foydalanish tartibi quyidagicha: (i) har bir satrda berilgan yechim – taʼsir zanjiri orqali sabab-oqibat mexanizmlari aniqlanadi; (ii) moslashtirish ustunida keltirilgan saboqlar mahalliy infratuzilma, kadrlar salohiyati va meʼyoriy muhit bilan uygʻunlashtiriladi; (iii) natijalar monitoring va baholash tizimi (asosiy samaradorlik koʻrsatkichlari) bilan bogʻlab boriladi. Shu tariqa jadval 1-rasmda tasvirlangan konseptual asosni amaliy dalillar bilan mustahkamlaydi hamda hududiy rivojlanishni tizimli integratsiya va oʻlchovli boshqaruv tamoyillari asosida rejalashtirishga xizmat qiladi.

4-jadvalda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, xususan, Germaniya, Niderlandiya, Skandinaviya davlatlari tajribasida hududiy boshqaruvga raqamli transformatsiyani joriy etish orqali resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni taʼminlash va aholi turmush darajasini oshirishga erishilmoqda. Ayniqsa, “Smart City” konsepsiyasi asosida shaharlar va hududlarda IoT tizimlari, sunʼiy intellekt va geografik axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Germaniya tajribasi shuni koʻrsatadiki, hududiy rivojlanish strategiyasining asosiy tamoyillaridan biri ilmfan va innovatsion infratuzilmani hududlarda samarali tashkil etish hisoblanadi. Mamlakatda “Raqamli hudud” (“Digitale Region”) dasturlari orqali kichik va oʻrta shaharlarda yuqori tezlikdagi internet, aqlli energetika tizimlari hamda texnologik xizmatlar joriy etilib, hududlarning raqobatbardoshligi oshirilmoqda.

AQSh tajribasida esa “Smart Regions” va “Regional Innovation Clusters” kabi tashabbuslar orqali hududlararo texnologik tafovutlarni kamaytirish va innovatsion taraqqiyotni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Silikon vodiysi, Ostin, Boston kabi texnologik markazlar atrofidagi hududlarda ilmiy-tadqiqot markazlari, startap muhitini rivojlantirish va raqamli xizmatlarni kengaytirish orqali iqtisodiy o’sish jadallashmoqda.

4-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda hududiy rivojlanishni innovatsion boshqarish tajribasi va O‘zbekistonga tatbiq etish takliflari²³

Mamlakat	Innovatsion boshqaruv tajribasi	O‘zbekistonga tatbiq etish mumkin bo‘lgan yo‘nalishlar
Germaniya	Hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, “Smart City” loyihalari, “Raqamli hudud” dasturlari	Viloyat va tumanlarda raqamli xizmatlarni kengaytirish, internet infratuzilmasini yaxshilash
AQSh	Hududiy innovatsion klasterlar, startaplar va ilmiy-tadqiqot markazlari atrofida hududlarni rivojlantirish	Texnoparklar va innovatsion markazlar atrofida tadbirkorlikni rag‘batlantirish
Janubiy Koreya	“Smart City” konsepsiyasi asosida infratuzilmani zamonaviylashtirish, transport va kommunal xizmatlarni raqamlashtirish	Shaharlar va turizm zonalarida aqlli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish
Yaponiya	Ekologik barqarorlik, texnologik xizmatlarni optimallashtirish va ijtimoiy muvozanat	Yashil texnologiyalarni hududiy rivojlanishga integratsiya qilish
Skandinaviya davlatlari (Norvegiya, Shvetsiya, Daniya)	Real vaqt monitoring tizimlari, AI asosidagi boshqaruv, ekologik va raqamli xizmatlar uyg‘unligi	Resurslardan samarali foydalanish uchun monitoring va sun’iy intellekt yechimlari joriy etish

Janubiy Koreya va Yaponiya kabi Osiyo davlatlarida esa zamonaviy texnologiyalar hamda aqlli boshqaruv tizimlari asosida hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish tajribasi muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, Seul shahri va uning atrofidagi hududlarda Smart City yechimlari orqali transport, energetika va kommunal xizmatlar samaradorligi oshirilmoqda.

Shuningdek, Skandinaviya davlatlari tajribasida hududiy boshqaruvda ekologik barqarorlik, yashil texnologiyalar va raqamli xizmatlar uyg‘unligi alohida o‘rin tutadi. Norvegiya, Shvetsiya va Daniya kabi mamlakatlarda hududlarni boshqarishda sun’iy

²³ Muallif ishlanmasi

intellekt asosidagi tahliliy platformalar va real vaqt monitoringi orqali resurslardan samarali foydalanish ta'minlanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish uchun raqamli transformatsiya va ilg'or texnologiyalar integratsiyasi zarur; innovatsion infratuzilma, ilmiy-tadqiqot markazlari va texnologik klasterlarning rivojlanishi hududlar raqobatbardoshligini kuchaytiradi; hududiy rivojlanishda ekologik barqarorlik va ijtimoiy muvozanatni saqlash uchun aqlli boshqaruv tizimlari samarali ishlaydi.

Ushbu tadqiqotda rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilgan amaliyotlarni o'rganish orqali hududiy rivojlanishni boshqarish uchun innovatsion boshqaruv strategiyalari o'rganilgan. Tadqiqot innovatsiya orqali barqaror o'sishni ta'minlashga intilayotgan boshqa hududlar uchun mezon sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan samarali yondashuvlarni aniqlashni maqsad qiladi. Mazkur tadqiqot kesma ma'lumotlar to'plamidan foydalanib, turli boshqaruv strategiyalarining hududiy rivojlanish natijalariga ta'sirini tahlil qiladi. Variatsiya tahlili (ANOVA) metodidan hududlar o'rtasida innovatsion boshqaruv amaliyotlarini qo'llash va samaradorligidagi farqlarning statistik ahamiyatini baholash maqsadida foydalaniladi. Natijalar iqtisodiy va ekologik barqarorlik hamda ijtimoiy inklyuzivlikka sezilarli hissa qo'shadigan bir qator asosiy strategiyalarni aniqladi.

E'tiborlisi shundaki, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash, davlat-xususiy hamkorlikni rivojlantirish va jamoatchilikka asoslangan tashabbuslarni ilgari surishga e'tibor qaratgan hududlar iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarida yuqori rivojlanish darajasini ko'rsatadi. Tadqiqot, shuningdek, adaptiv boshqaruv va hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda mahalliy innovatsion ekotizimlarning roli kabi yangi kuzatilgan faktlarni aniqlaydi.

Shunday qilib, birinchi bob bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni hududiy boshqaruv tizimiga joriy etish va ularni rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlikni oshirish va hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Sun'iy intellekt, IoT, GIS, Big Data kabi ilg'or texnologiyalar va zamonaviy marketing yondashuvlari hududiy boshqaruvning transformatsion asosiga aylanmoqda. Natijada hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va yangi investitsiya oqimini shakllantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda innovatsion yondashuvlar tahlili”** deb nomlanib, unda hududiy boshqaruv jarayonlarida innovatsion texnologiyalarning amaliy qo'llanishi va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Avvalo, Olmazor tumani misolida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonlari o'rganilib, mavjud infratuzilmaning raqamlashtirilganlik darajasi, axborot tizimlarining ishlash samaradorligi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlarining holati aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, hozirgi kunda mahalliy boshqaruv organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sezilarli darajada kengaygan

bo'lsa-da, ularning samaradorligi yetarli darajada emas (5-jadval). Bu holat resurslardan foydalanish jarayonida yuqori xarajatlar, aholining murojaatlariga kechikib javob berish, statistik ma'lumotlar yig'ish va qayta ishlashda noaniqliklarning mavjudligi bilan ifodalanadi. Shu bois hududiy boshqaruvda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

5-jadval

Hududiy boshqaruvda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning mavjud muammolari²⁴

Muammo turi	Amaldagi holat	Natija	Tavsiya
Raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi	Internet qamrovi 78 % bilan cheklangan	Axborot oqimlari sekin	IoT va 5G texnologiyalarini kengaytirish
Ma'lumotlar bazasining fragmentarligi	Statistika bazalari yagona platformaga birlashtirilmagan	Qaror qabul qilishda kechikish	Big Data integratsiyasini amalga oshirish
Sun'iy intellekt vositalaridan kam foydalanish	Analitik jarayonlarning 70 % qo'lda bajariladi	Xatoliklar yuqori	AI asosidagi analitika joriy etish
GISdan foydalanishning cheklanganligi	Hududiy xaritalar yetarlicha aniqlikka ega emas	Rejalashtirishda xatoliklar	GIS va fazoviy tahlillarni kengaytirish

Ushbu jadval hududiy boshqaruvga innovatsion texnologiyalarni joriy etishda mavjud muammolarni aniq ko'rsatib beradi va keyingi bosqichlarda hal qilinishi zarur bo'lgan yo'nalishlarni belgilaydi. Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish natijasida qaror qabul qilish tezligi 25–30 foiz, resurslardan foydalanish samaradorligi esa 15–20 foizga oshishi mumkin. Bu esa innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishning zaruriy shart ekanini ko'rsatadi.

Olmazor tumani misolida o'tkazilgan tahlillar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida innovatsion faoliyatning o'sib borayotganini ko'rsatadi. So'nggi yillarda tuman iqtisodiy tuzilmasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, yangi startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy va ishlab chiqarish sohalarini integratsiyalash kabi muhim o'zgarishlar kuzatildi.

Mazkur holat "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan hududiy transformatsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, Olmazor tumanida Innovatsion texnoparklar, IT-startaplar, raqamli xizmatlar markazlari faoliyatining kengayishi mahalliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tumanning iqtisodiy tarmoqlari kesimida innovatsion faoliyat ko'rsatkichlarini o'rganish natijasida aniqlanishicha, 2019–2024-yillar oralig'ida innovatsion korxonalar soni 42 tadan 74 taga oshgan, raqamli xizmatlar ulushi esa 9,3 %dan 21

²⁴ Muallif ishlanmasi

%gacha ko‘tarilgan. Bu jarayon bilan bir qatorda yangi ish o‘rinlari yaratilishi va yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmining muntazam o‘sishi kuzatilgan.

6-jadval

**Olmazor tumanida innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari
(2019–2024-yillar)²⁵**

Yil	Innovatsion korxonalar soni	Raqamli xizmatlar ulushi (%)	Ish o‘rinlari soni	Hududiy yalpi mahsulot (mlrd so‘m)
2019	42	9,3	1450	218,6
2020	49	12,1	1620	232,4
2021	58	15,8	1760	258,9
2022	66	17,9	1900	276,5
2023	71	19,5	2050	298,3
2024	74	21,0	2190	312,1

Quyidagi jadvalda Olmazor tumanining 2019–2024-yillar oralig‘idagi asosiy innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari keltirilgan. Mazkur raqamlar asosida muallif tomonidan innovatsion faoliyatning iqtisodiy o‘rishga ta‘siri hamda ularning o‘zaro bog‘liqlik darajasi tahlil qilingan.

7-jadval

Fuzzy AHP metodiga asoslangan ustuvor yo‘nalishlar²⁶

Yo‘nalish	Ekspert bahosi (0–1)	Ustuvorlik darajasi
Turizm	0.34	1-o‘rin
Xizmat ko‘rsatish sohasi	0.28	2-o‘rin
IT sektori	0.21	3-o‘rin
Infratuzilma	0.10	4-o‘rin
Sanoat	0.07	5-o‘rin

